

IJTIMOIY MENTALITET MODELLARINING ASOSIY QOIDALARI

Turg‘Unov Toxir Azizovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport
huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi kata o‘qituvchisi

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus university nodavlat oliv ta’lim muassasasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mentalitet tushunchasining mazmun-mohiyati, ushbu sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar, dunyo xalqlari fikrlashidagi yangicha xususiyatlar, ularning sabablari, ijtimoiy mentalitetning jamiyat hayotidagi o‘rnvi va amal qilish xususiyatlari to‘g‘rida fikr yuritilgan.

Аннотация:

В данной статье рассматривается сущность понятия менталитет, изменения в этой области, новые особенности в мышлении народов мира, их причины, роль социального менталитета в жизни общества и особенности его реализации.

Abstract:

This article discusses the essence of the concept of mentality, changes in this field, new features in the thinking of the peoples of the world, their reasons, the role of social mentality in the life of society and the features of its implementation.

Kalit so‘zlar: Mentalitet, milliy mentalitet, ijtimoiy mentalitet, jamiyat, yoshlar, siyosat, huquq.

Ключевые слова: Менталитет, национальный менталитет, социальный менталитет, общество, молодежь, политика, право.

Keywords: Mentality, national mentality, social mentality, society, youth, politics, right..

Introduction

Bugungi yuksalish davriga chiqib borayotgan mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Xususan, mentalitet sohasidagi o‘zgarishlar dunyo xalqlarini birlashishga, yaqinlashishiga olib kelmoqda. Ijtimoiy mentalitetning ko‘p darajali modelini ishlab chiqishga kirishishdan oldin “siyosiy” predikatiga qanday mazmun yuklanishini aniqlash o‘rinli bo‘ladi.

Hozirgi davrda nashr etilgan adabiyotlarda mazkur tushunchani siyosiy mutafakkirlar tomonidan talqin qilishda uch bosqich farqlanadi. Birinchi bosqichda (miloddan avvalgi V asr – XVII asr) davlat hayoti sifatidagi siyosat haqidagi tasavvur yetakchilik qilgan. Bu davrda odamlar davlat vositasida o‘zaro muloqot qilish orqali “siyosiy odamlar”ga aylanganlar.

Siyosatni anglab yetishning mazkur paradigmasi doirasida davlat oliv hokimiyat manbai, jamiyatni oqilona tashkil etish maqsadida kishilar hayotini tartibga solish organi sifatida qaralgan. Bunda hayotning o‘zi davlat hokimiyati doirasida aylangan holdagina mazmun kasb etgan. Siyosat dunyosini siyosiy faylasuflar avvalo tabaalarni davlat tomonidan boshqarish sohasi sifatida tushunilgan. Shu sababli ularning e’tiborini davlatning kelib chiqishi va tabiatini, tabaalarni davlat tomonidan boshqarish xususiyati va tamoyillari kabi muammolar o‘ziga tortgan.

Siyosat haqidagi tasavvurlar tadrijiy rivojlanish jarayonining ikkinchi bosqichi (XVIII-XIX asrlar) “davlat-syentristik” paradigmadan “sosiosentristik” paradigmaga o‘tish bosqichi sifatida qaraladi. Mazkur bosqichda siyosiy faylasuflar jamiyatni davlatdan ajrata boshlaganlar. Shu sababli ularning bilishga doir qiziqishlari markazidan jamiyatni jipslashtirish negizi sifatidagi davlat muammolari emas, balki eng avvalo jamiyat va davlatning o‘zaro aloqasi masalalari o‘rin olgan.

Ushbu bosqichda siyosatga nisbatan instrumental yondashuv shakllana boshlagan. Bunda siyosatning jamiyatdagagi roliga emas, balki uning vositalariga urg‘u berilgan. Bunday universal vosita sifatida birinchi navbatda institutlar (qonunchilik, ijro va sud organlari, armiya, byurokratiya) tizimiga, moddiy, moliyaviy, harbiy va boshqa resurslarga, mafkura, huquq va hokazolarga tayanadigan davlat hokimiyati e’tirof etiladi. Ayni shu sababli mazkur bosqichda siyosatga ko‘proq davlat hokimiyatiga, chunonchi: undan muayyan ijtimoiy birliklarning manfaatlarda yoki, aksincha, unga qarshi kurash maqsadida foydalanishga doir munosabatlar sifatida qaralgan.

Uchinchi bosqich taxminan XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan va hozirgi vaqtgacha davom etmoqda. Bu siyosat dunyosiga nisbatan “sosiosentristik”, so‘ngra “antroposentristik” yondashuvning qaror topish bosqichidir[1]. Mazkur bosqichda siyosat dunyosi tizimli-funksional yondashuv yoki ijtimoiy harakatning turli xil nazariyalari nuqtai nazaridan qaraladi. Siyosat “konkret ijtimoiy birlik maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni tashkillashtirish va safarbar etish” bilan bog‘liq bo‘lgan “politosfera” (sub’yektlar, vaziyatlar institutlar, jarayonlar) sifatida talqin qilinadi[2].

Ijtimoiy tizimning boshqaruv funksiyasi shundan iboratki, u jamiyatning turli jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarni uning “umum ahamiyatiga molik maqsadlari va manfaatlari” nuqtai nazaridan izchil tartibga soladi.

Ijtimoiy tizimning tartibga soluvchi bosh omili davlat boshqaruvi va hokimiyat hisoblanadi. Tashkiliy nuqtai nazardan hokimiyat “boshqaruvchilar”ning “boshqariluvchilar” ularning ijtimoiy tizim boshqaruv funksiyalarining me’yoriy-majburiy xususiyati hokimiyatni institusiallashtirishni va tegishli davlat-huquqiy va ijtimoiy tuzumlarni rasmiylashtirishni talab qiladi.

Ijtimoiy tizim haqidagi bunday tasavvurdan kelib chiqib, biz uning predmeti sohasini “boshqaruv – institutlar – yo‘l” uchligi sifatida tavsiflashimiz mumkin. Ijtimoiy boshqaruv sohasini ijtimoiy hayotning mazkur uchlikka bevosita daxldor bo‘lgan hodisalarini aniqlash orqali yoritish mumkin. Bular: davlat, hokimiyat, erkinlik, demokratiya, avtokratiya, qonun, huquq, partiya, lider, tartib,adolat, islohotlar.

Ijtimoiy mentalitetning ko‘p darajali modelini tuzishda darajalar va mazmun tuzilishini aniqlash muhimdir. Mazmun jihatidan ijtimoiy mentalitet muayyan ijtimoiy birliklarning kundalik ijtimoiy-siyosiy vogelik sohasidagi ongli va ongsiz siyosiy tasavvurlari, qadriyatlari va mo‘ljallari yig‘indisidir.

Mentalitet dunyo haqidagi tasavvurgina emas, degan nuqtai nazarga qo‘shilgan holda, biz mazmun jihatidan mentalitetni dunyoni idrok etish va «faollik» sifatida talqin qilamiz. Bu idrok etishning faolligini ham, harakatning faolligini ham nazarda tutadi. Shunga muvofiq ijtimoiy mentalitetning tuzilishi quyidagi ko‘rinish kasb etadi: 1) siyosiy xulq-atvorning bilish motivi vazifasini bajaruvchi ijtimoiy-siyosiy vogelik

haqidagi ongli va ongsiz tasavvurlar; 2) ongli va ongsiz xususiyat kasb etadigan va siyosiy xulq-atvorning bilish motivi vazifasini bajaradigan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va mo'ljallar; 3) vaziyatga qarab muayyan tarzda ish ko'rishga ongli tayyorliklar va ongsiz mayllar – ijtimoiy-siyosiy mo'ljallar.

Ijtimoiy tasavvurlar biz bevosita idrok etmaydigan siyosiy va ijtimoiy voqelik haqidagi obrazli bilimlardir. Adabiyotlarda o'tmishdagi ta'sirlarning izlari xotirada saqlanishi va ularning aktuallashuvi ijtimoiy tasavvurlarning ijtimoiy-psixologik sharti hisoblanishi qayd etiladi. Xotira bilish faoliyatining uzlusizligi va vorisiyigini ta'minlaydi.

Ijtimoiy tasavvurlar voqelik o'tmishda insonga ko'rsatgan ta'sirlar "izlari"ning ongda aks etishi bo'lishi mumkin. Ammo inson duch keladigan siyosiy obrazlar ko'pincha idrok etilgan narsaning ongda aks ettirish bilangina cheklanmaydi. Inson muayyan obrazlarni ijodiy biriktirishi va nisbatan erkin holda yangi obrazlarni yaratishi mumkin. Ijtimoiy tasavvurlar hissiy va oqilona bilish o'rtasida "oraliq" o'rinni egallaydi[3].

Ijtimoiy tasavvurlarni tushunish uchun E.Dyurkgeymning jamoa tasavvurlari, S.Moskovichning ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyalari va J.Piajening kognitiv psixologiyasi ulkan ahamiyat kasb etadi.

E.Dyurkgeym konsepsiyasida jamoa tasavvurlari ongning individdan ustun turadigan, individual onglar yig'indisi bilan bog'lanmaydigan o'z mazmuniga ega bo'lgan fenomenlari sifatida tushuniladi.

Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiysi S.Moskovich asos solgan fransuz ijtimoiy-psixologik maktabi doirasida ishlab chiqilgan. Uning yaratuvchilari ijtimoiy tasavvurlarni o'rganishni o'zlarining vazifasi sifatida belgilamaganlar, ular asosan Freyd psixoanalizi amaliyotini ommaviy muomalaga kiritishga va turli "maishiy" psixologik fenomenlarga taalluqli bo'lgan muammolarni yechganlar. Ammo ularga tarix va madaniy evolyusiya bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy makroiijtimoiy hodisalarga qiziqish xosdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Degtyarev A.A. Politika kak sfera obshchestvennoy jizni // Sosialno-politicheskiy jurnal. 1997. №2. –S. 37.
2. Ilin V.V. Politologiya. – Moskva, 1999. – S. 5, 45-47.
3. Spirkin A.G. Osnovы filosofii. – Moskva: 2001 – S.592.
4. Mamanov, J. A. (2018). Yoshlar ma'naviy madaniyatiga tahdid yoki misionerlikning salbiy oqibatlari. O'zMU xabarnomasi, 169.
5. jamoliddin Abduraximovich, M. (2023, November). ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIK MUHITNING O'RNI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 158-166).
6. Mamanov, J. A. (2018). MA'NAVIY TARBIYA TAKOMILIDA SPORT VA AXLOKIY MADANIYATNI UYFUNLASHTIRISH MASALASI. Fan-Sportga, (3), 74-78.
7. Mamanov, J. A., & Xushvaqtov, Z. R. (2022). MILLIY MENTALITET (MEXANIZMI) VOSITASIDA YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 9-13.
8. Mamanov, J. A. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 3203.

-
9. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2022). MILLIY MENTALITET ASOSIDA YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 520-528.
10. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 383-390.
11. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2023). MAMLAKATIMIZ AHOLISI O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI QAROR TOPTIRISH–BUYUK KELAJAK ASOSI. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 311-314.